

KO'RISH QOBILIYATIDA MUAMMOSI BOR TALABALAR BILAN RAQS TA'LIMINI TASHKIL ETISH USULLARI

Abraykulova Nasiba Erkinovna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

"Sahna harakati va jismoniy madaniyat" kafedrasi mudiri, dotsent.

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan ko'rish qobiliyatida muammosi bor talabalar bilan raqs ta'limini tashkil etish usullari, bu borada uchrayotgan muammolar hamda yechimi sifatida takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: ko'rish qobiliyati, muammo, raqs, inklyuziv ta'lim, zaif ko'ruvchi, jarayon, harakat, san'at, madaniyat, faoliyat, pedagogik texnologiya, metod.

METHODS OF ORGANIZING DANCE TRAINING FOR STUDENTS WITH VISUAL IMPAIRMENT

Nasiba Erkinovna Abraykulova

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan

Head of the Department of Stage Movement and Physical Culture, Associate Professor.

Abstract. In this article, the author presents a methodology for organizing dance training for visually impaired students, the problems that arise in connection with these and proposals for their solution.

Keywords: vision, problem, dance, inclusive education, visually impaired, process, movement, art, culture, activity, pedagogical technology, method.

Bugungi kunda boshqa sohalar qatori madaniyat va san'at ta'lim muassasalarida ham inklyuziv ta'lim tushunchasi tez-tez tilga olinmoqda. Xo'sh, inklyuziv ta'lim o'zi nima? Aksariyat odamlarda bu tushuncha nogironligi bor bolalarning sog'lom bolalar bilan bir sinfda o'qishi, bir partada o'tirishi deb tushunadi xolos. Aslida inklyuziv ta'lim nosog'lom bolalar barcha sog'lom bolalarda bo'lgani kabi shart-sharoiti bir xil bo'lgan ta'lim muassasalarida ta'lim olishini [anglatadi](#).

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish bilan bog'liq muammolarni hal etish masalalariga davlatimiz tomonidan yanada ko'proq e'tibor qaratila boshlandi. Xususan, Prezident Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [PQ-4860](#)-son Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorda 2025-yilgacha inklyuziv umumta'limni bosqichma-bosqich joriy etish masalasi qo'yilgan. Bunda imkoniyati cheklangan bolalarning maktablarga

kelishi uchun to‘siqsiz muhit yaratish, yangi quriladigan maktablarni xuddi qulay sharoitlar bilan qurish, pedagog kadrlar tayyorlash, o‘quv bazasini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan. Imkoniyati cheklangan bolalar ham sog‘lom bolalarga berilgan e‘tibor, ularga yaratilgan sharoitlarda o‘qishga haqlidiplar. O‘zbekistonda ijtimoiy ahvolidan, imkoniyatidan qat’iy nazar, barcha bolalar davlat ta‘lim muassasalarida ta‘lim oladilar. Bu tegishli meyoriy hujjatlarda o‘z aksini topgan va davlat tomonidan kafolatlangan. Ayniqsa san‘at turlariga ishtyoqi baland bo‘lgan bolalar ehtiyojini qondirish alohida e‘tiborga olingan. Xususan, maxsus maktab-internatlarda fan va badiiy havaskorlik to‘garaklari tashkil qilingan. Ularning orasida she‘r yozuvchi, ashula aytuvchi, raqsga tushuvchi iste’dodli bolalar ham bor.

O‘z tajribamdan kelib chiqib aytisam, madaniyat va san‘at ta‘lim yo‘nalishlarida ko‘rish qobiliyatida muammosi bor talabalar toifasi bilan alohida ishlab raqs san‘ati ta‘limini amalga oshirish mumkin. Ammo, bunga o‘qituvchilar ham ruhan tayyor bo‘lishlari lozim. Chunki, ular o‘qituvchini tez ilg‘aydi va tushunadi. Sog‘lom talabalar bilan bir guruhda o‘qiydigan imkoniyati cheklangan talabalar eshitishga, ko‘rishga va tushunishga boshqalardan ko‘ra ko‘proq kuch sarflashi kerak bo‘ladi. Shu narsalarni o‘qituvchilar to‘g‘ri qabul qila olishi va ular bilan yaxshi munosabatni yo‘lga qo‘ya olishi zarur. Buning uchun esa avvalo ularning o‘zilarini tayyor bo‘lishi kerak. Imkoniyati cheklangan talabaga dars o‘tmagan o‘qituvchi guruhida shunday talabalar bo‘lsa, u dastlab talaba dilini tushunmasligi, uning qiyin o‘zlashtirishini qabul qila olmasligi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchilarni imkoniyati cheklangan talabalar bilan ham ishlashga o‘rgatish lozim.

Ko‘rish qobiliyatida muammosi bor talabalar bilan ishlashni nazarda tutgan holda raqsdagi mashqlarni o‘zgarmas narsa deb tushunmaslik kerak. Aslida har bir mashq o‘ziga tegishli kichik maqsadni ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirishda esa tegishli sharoit uchun eng ma‘qul deb topilgan usullardan foydalanish ko‘zda tutiladi. Demak, mashqlarda belgilangan maqsadni o‘zgartirmagan holda uni to‘liq amalga oshirishni ta‘minlovchi, o‘zaro farq qiluvchi har turli yo‘llar, usullar, vositalar qo‘llanilishi mumkin.

“O‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati pedagogik texnologiyaning asosiy jarayoni hisoblanadi. O‘quv-tarbiya mashg‘ulotlari o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi pedagogik muloqot ko‘rinishida amalga oshiriladi. Bu muloqot davomida ularning har biri ma‘lum faoliyat turlarini amalga oshiradilar.” Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi uchun so‘zlash-tushuntirish, topshiriqlar berish- rahbarlik qilish, nazorat qilish - mustaqil bilim olish va fikrlashni o‘rgatishdan iborat.

Masalan, pedagogik texnologiyaning so‘zlash jarayonida o‘qituvchi va talaba faoliyatida turli vositalardan foydalaniladi. O‘qituvchi so‘zlash orqali motivatsiya beradi. Tushuntirish orqali axborot va raqs san‘ati bo‘yicha bilim beradi, o‘z mahoratini ishga solib munozaraga kirishadi. Talaba esa o‘qituvchini tinglash orqali

motivatsiya oladi, eshitish jarayonida diqqatini jamlaydi. O'zlashtirish orqali hotirasini mustahkamlaydi va munozaraga kirishadi, so'zlash orqali irodasi mustahkamlanadi.

Raqs san'ati ta'limida o'qituvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar so'zlash, mashq qildirish, vazifa berish va nazorat qilishdan iborat. Bunda o'qituvchi gapirib tushuntiradi, harakatlarni qo'li bilan ushlab o'zi bilan mashq qildiradi, talabaniq mustaqil bajarqan mashqlarini tekshirib, kamchiligini to'g'irlyadi va mustahkamlyadi. Bu yerda pedagogik texnologiya asosan psixologik vositalarga, jumladan, o'qituvchi mahorati, malakasi, talabaniq iste'dodi, irodasiga bog'liqligiga e'tibor qaratish lozim. Talabaniq vazifasi esa diqqatni jamlagan holda tinglash-tushunish, kuzatish-o'zlashtirish, topshiriqni bajarish orqali mustaqil bilim olishni va fikrlashni o'rganishdan iborat. Xulosa shu-ki, o'qituvchi rahbarligida talaba o'zi bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini egallaydi.

Raqsni o'qitishning sog'lom talabalardan farqli tomonlari shundaki, ularni toliqtirib qo'ymaslik uchun 10-15 daqiqa mashg'ulot olib boriladi. Raqsdaqi holatlar, harakatlar haqiqa tasavvur hosil qilishlari uchun ularning qo'llarini ushlagan holda oldinga chozib to'g'ridaqi, yonga keng ochib yon tomondagi va yuqoriga ko'tarib yuqoridaqi eng uzoq, ya'ni harakatlanish doirasining asosiy nuqtalari belgilab beriladi. Ushbu asosiy nuqtalarni o'zlashtirib olganlaridan so'ng holatlar va harakatlarning ijrosi ustida ishlanadi.

Bundan tashqari, o'qituvchilarning ovoqli tarzda mavzularni tushuntirishining o'zi talabalarining o'zlashtirishi uchun yetarli bo'lmaydi. Chunki biror yangi mavzu boshlashdan oldin undaqi tushunchalar obdon tushuntirilib, talabalarda tasavvur paydo bo'lgach, keyin u haqiqa ma'lumot beriladi. Ma'lumotni qabul qilganini savol-javob qilish orqali tekshirib ko'rilgach harakatlarni o'rganishga o'tiladi. Masalan, "kaftni aylantirish" harakatini o'rgatishda kaftning har-bir qismini ushlab tushuntirish, so'ngra qo'lga gulni berib, bilak va barmoqlarning aylanma shaklda harakatlanishini his qilishiga erishish lozim.

Talabaniq inklyuziv muhitda boshqalardan o'zini kam his qilmasligi, jismoniy imkoniyati cheklanganidan siqilmasligi uchun sharoit yaratish muhim. Zaif ko'ruvchi va umuman ko'rish qobiliyati bo'lmagan talaba o'qituvchining sog'lom talabalar bilan bo'lgan muloqotini, bajarayotgan mashqlarni takrorlayoganda aytiladigan ma'lumotlarini eshitib o'tiradi. Natijada u ham boshqalar kabi harakatlanishni, raqsqa tushishni hohlaydi. Uning bunday holatida ko'zga tashlangan kamchiliklaridan boshqa talabalar kulishlariga yo'l qo'yilmasligi kerak. Agar kimdir masxara qiladigan bo'lsa, talaba battar o'z qobig'iga o'ralib oladi. Ko'rish qobiliyatida muammolari bor talabalarining raqs fanidan o'qishiga, dars qilishiga qiziqishi so'nishi mumkin. U ruhan boshqa tengdoshlari bilan yaqin bo'la olishiga sharoit yaratish kerak. Bu kabi talabalarga o'qituvchi alohida yondashishi kerak bo'ladi. Ko'pchilik talabalar nogironligi bor talabalar haqiqa sayoz fikrlamaslikni, ularning ustidan kulmaslik

kerakligini, ular ham boshqalar qatori oddiy odam ekanini, faqat sal kuchsizroq ekanini tushunishmaydi.

“Ko‘zi ojiz talabalarni raqs san‘atini o‘qishida nimalar qiynamoqda?”-degan xaqli savol tug‘iladi. Imkoniyati cheklangan talabalar oddiy talabalarga qaraganda ko‘proq e‘tiborga muhtoj bo‘ladilar. Ko‘zi ojizlar va zaif ko‘ruvchi talabalar uchun ularning har biriga individual yondashiladi. Sog‘lom talabalarga qaraganda, ko‘rish bilan muammosi bor talabalarining harakatlanish tezligi past bo‘ladi. Ular eshitish va eslab qolish asosida o‘qiydi. Bu esa talabadan energiya talab qiladi. Ba‘zi otanonalar nogironligi bo‘lgan bolasini raqs fanidan mashg‘ulotlarga qatnashishini hohlamaydilar. Sog‘lom tengdoshlari kabi raqsga tusha olmasligi sabab ko‘ngli cho‘kib qoladi deb o‘ylaydilar. Ammo bunday talab talabalar huquqlariga zid deb o‘ylayman. Chunki barcha talabalar ta‘lim turini va fanni tanlash huquqiga ega. Inklyuziv ta‘lim uchun to‘siqlarga yo‘l qo‘yilmasligi kerak. Masalan: “Ashula va raqs” ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun “Raqs san‘ati asoslari” fani ma‘ruza va seminar shaklda o‘qitiladi. Mazkur yo‘nalishda o‘qiydigan ko‘rish qobiliyatida muammolari bor talabalar ushbu fanda faol qatnashadilar, o‘zaro fikr almashadi. Ammo, “Raqs”, “O‘zbek xalq raqslarini sahnalashtirish” kabi fanlar amaliy mashg‘ulot shaklida o‘qitiladigan fan bo‘lganligi sababli “Raqs fani mashg‘ulotiga kirishing va uni o‘rganishing shart emas” kabi fikrlarni ularning ongiga singdirishlari sababli birmuncha to‘siqlarga duch keladilar.

Bu masalada biz jamiyatimizning ongini o‘zgartirishimiz kerak, chunki sog‘lom insonlar imkoniyati cheklangan talabalarga past nazar yoki achinish hissi bilan qaramasliklari kerak.

Davlatimiz tomonidan berilayotgan imkoniyatlar hamda soha mutaxassisleri tomonidan olib borilayotgan bir qancha ishlarga qaramasdan bu borada ham **muammolar** mavjud:

- Raqs san‘ati ta‘limida pedagogika fanlariga oid dasturlarda va darsliklarda inklyuziv ta‘limga e‘tibor qaratilmagani, shuningdek, bo‘lajak pedagog-xoreograflarning alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar jalb qilingan ta‘lim muassasalarida amaliyot o‘tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda;

- Alohida ta‘limga ehtiyojlari bo‘lganlarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta‘lim tizimining mazmun-mohiyati haqida talabalar o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borilmaganligi sababli ularga tanishuv mashg‘uloti shaklida o‘qitiladigan **raqs san‘ati bo‘yicha ta‘lim olishlari mumkinligi haqida** yetarli ma‘lumotga ega emas;

- alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan talabalarga raqs san‘atini **o‘qitishga mo‘ljallangan zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilmagan.**

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida **takliflar**:

1. Pedagog-xoreograf ta'lim yo'nalishi uchun "raqs san'ati ta'limida inklyuziv ta'lim" dasturlarini ishlab chiqish;
2. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida pedagog-xoreograf ta'lim yo'nalishi talabalarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish;
3. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lganlarga **raqs san'atini** tanishuv mashg'uloti shaklida o'qitish **mumkinligi haqida** targibot ishlarini olib borish;
4. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lganlarga nogironlik turlari va yoshini hisobga olgan holda raqs san'atini o'qitishga mo'ljallangan zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar ishlab chiqish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish uchun bu borada katta tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar, olimlar jalb etilishi nazarda tutiladi.

Adabiyotlar

1. Дўсанов Р.Р. (2023) БАХШИЛАР “БИР АКТЁР ТЕАТРИ” ИЖРО УСЛУБИ АСОСЧИЛАРИ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННҚЕ ИДЕИ В МИРЕ, 13(3), 109-115.
2. ЗК Фазлиева. ВЗАИМОСВЯЗЬ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА" МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ТАНЦА"//Теория и практика современной науки. – 2018. – Т. 4. – С. 534-537.
3. Зокирова С.М. (2021). Балет-Искусство Блистательного Танца. ТА'ЛИМ VA RIVOJLANISH TANLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 72-73.
4. Зокирова С.М. (2017). Творческий процесс постановщика танца. Молодой ученый, (11), 428-430.
5. Зокирова Саида Муратовна, «ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЕ ДВИЖЕНИЯ И ПЛАСТИКА ДЛЯ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ.» ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННҚЕ ИДЕИ В МИРЕ 14.1 (2023): 134-137.
6. Kamarbekovna F. Z. THE ROLE OF THE COMPOSER IN THE ART OF CHOREOGRAPHY //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – Т. 6. – С. 2-2.
7. MAMIROVA, D. (2019). ASSOCIATION OF PHYSICAL PREPAREDNESS AND ACTOR MASTERY IN A SINGLE APPROACH DURING FUTURE SPECIALISTS TRAINING. *Culture and Arts of Central Asia*, 9(1), 68-72.
8. Mamirova, D. T. (2019). INFLUENCE OF EASTERN HERITAGE ON THE FORMATION OF PERSONAL DEVELOPMENT. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 430-433.
9. Мамирова, Д. Т. (2019). Основы организации и управления массовыми видами спорта в системе непрерывного образования. *Ученые записки университета им. ПФ Лесгафта*, (7 (173)), 113-117.
10. Мамирова, Д. Т. (2021). Физиологические изменения в организме при физических нагрузках и средства восстановления. *Международный инженерный журнал исследований и разработок*, 6(1).

11. Mamirova, D. T. (2019). SOCIAL FACTORS AND MOTIVATION AS A WAY OF INCREASING ATTRACTING STUDENT YOUTH TO REGULAR ACTIVITIES BY PHYSICAL CULTURE AND MASS SPORTS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(4), 370-375.

12. Мамирова, Д. Т. (2021). Национальная методология управления спортивно-массовыми мероприятиями. *Universum: филология и искусствоведение*, (1 (79)), 4-6.

13. Мамирова, Д. Т. (2022). ПРИЧИНЫ ПЕРНАПРЯЖЕНИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ У ЗАНИМАЮЩИХСЯ СПОРТОМ ЛЮДЕЙ И МЕТОДЫ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ. *Journal of new century innovations*, 10(3), 103-108.

14. Мамирова, Д.Т. (2022). РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПРИКЛАДНОЙ ПОДГОТОВКЕ В ВУЗАХ ИСКУССТВА И КУЛЬТУРЫ. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(6), 107-113.

15. Маннонов С. Ш., Фазлиева З. К. ИБТИДОЙ ПАНТОМИМАЛАР: ЎЙИНЛАР ВА СЮЖЕТЛАР //Oriental Art and Culture. – 2021. – №. 8. – С. 99-105.

16. Юсупова, В.И., & Останина О.А. (2019). ИННОВАЦИОННО-КУЛЬТУРНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp.232-233).

17. Ismetovna, Y.V., Anatolevna, O.O., Ljuraevna, U.L., & Erkinovna, A.N. (2021). Peculiarities of theatrical art. *Emergent:Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, 2(6), 1-4.

18. Юсупова, В.И., & Останина, О.А. (2020). Специфика постановки пьесы Уильяма Шекспира «Гамлет» на узбекском языке на сцене учебного театра Государственного института искусств и культуры Узбекистана. In Язык и культура (pp.254-259).

19. Tavakulovna, M. D., & Shamshidinovna, N. A. (2022). METHODOLOGY FOR CARRYING OUT THE EDUCATIONAL PROCESS IN PHYSICAL EDUCATION AND SPORT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 457-459.

20. Tavakulovna, M. D., & Shamshidinovna, N. A. (2022). OECD Principles of Corporate Governance and Well Organized Corporate Governance in Liverpool FC. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 4, 55-58.

21. Tavakulovna, M. D., & Shamshidinovna, N. A. (2022, March). USE OF MULTIMEDIA IN THE TRAINING PROCESS OF YOUNG GRECO-ROMAN WRESTLERS. In *Archive of Conferences* (pp. 32-37).

22. Шерматов Н. (2021). “ДИЛҲИРОЖ” РАҚСИЁНГАН ЮРАК АЛАНГАСИ. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 334-339.

23. Н.Шерматов. International Conference on Digital Society, Innovations & Integrations of Life in New Century. www.iejrd.com SJIF: 7.169 1. CLASSICAL DANCE AS AN IMPLEMENTATION OF VARIOUS LIFE THEMES AND PLOTS. 2021 йил 13-февраль.